

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
“Olmaliq KMK” AJ sharoitida texnik ishlatilgan moylarni qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - “Olmaliq KMK” AJ ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan ishlatilgan texnik moylarni turlarga ajratish va ularning miqdorlarini aniqlash; - ishlatilgan texnik moylarni texnik parametrlarini laboratoriya sharoitida aniqlash va tahlil qilish; - ishlatilgan texnik moylarni kompleks qayta ishlashning texnologik sxemasi ishlab chiqiladi; - ishlatilgan texnik moylarni mahalliy absorbentlar yordamida kompleks qayta ishlash usullari yaratiladi, shuningdek, atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar miqdori kamaytirilib ishlatilgan texnik moylarni regeneratsiyalash amaliyoti ishlab chiqiladi; - ishlatilgan texnik moylarni qayta ishlashning absorbsiya usulida regeneratsiya qilish texnologiyalarining optimal parametrlari tadqiq qilinadi va yangi texnologik reglament ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar “Olmaliq KMK” AJ sanoat sharoitida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.